

KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MULOQOT JARAYONIDAGI INDIVIDUAL FARQLARNING AKS ETISHI

Mutabarxon Maxsudova,

NamDU dotsenti

Mutabar60@.com

***Annotatsiya.** Maqolada muloqot jarayonida individual farqlarning aks etishi, mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda muloqotning o'rni, shaxslararo muloqotda individual farqlarning namoyon bo'lishida temperament turlarining o'rni, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy tajriba va ma'lumot darajasi, emotsional intellektlarning ahamiyati to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Professional kompetentlik, muloqot, psixologik to'siqlar, emotsional muvofiqlik yetishmasligi, individual farqlar, ijtimoiy stereotiplar.*

***Аннотация.** В статье представлена подробная информация об отражении индивидуальных различий в процессе общения, роли общения в воспитании здорового и гармонично развитого поколения в нашей стране, роли типов темперамента в проявлении индивидуальных различий в межличностном общении, особенностях характера, социальном опыте и уровне образования, значении эмоционального интеллекта.*

***Ключевые слова:** Профессиональный компетентность, общения, психологические барьеры, неразвитость эмоциональной компетентности, индивидуальные различие, социальные стереотипы.*

***Annotation.** The article provides a detailed analysis of the manifestation of individual differences in the process of communication. It examines the role of communication in fostering a healthy and well-developed generation in the country, as well as the influence of temperament types on the expression of individual differences in interpersonal communication. Furthermore, the study highlights the significance of character traits, social experience, level of knowledge, and emotional intelligence in shaping communication processes.*

***Keywords:** Communication, psychological barriers, lack of emotional compatibility, individual differences, social stereotypes.*

Hozirgi ta'lim jarayonida samarali natijalar va shaxsiy muvaffaqiyatlarga erishish uchun muayyan sharoitda, ma'lum vaqt oralig'ida eng maqbul amaliy qarorni qabul qila olish va qo'yilgan maqsadga erishish uchun kommunikatsiya vositalarni aniq tanlash kabi sifatlar g'oyat muhim omillardan sanaladi. Umummadaniy daraja, keng dunyoqarash, axborotga egalik va xabardorlik insonning shaxs sifatida real olamni munosib tahlil qilishi va baholash imkoniyatlarini oshiradi, unda ro'y berayotgan o'zgarishlarga fikr bildira olishga hamda yuzaga keladigan muammolarni mustaqil ravishda hal qilishiga imkon beradi. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda "ta'lim jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimediya vositalarni keng joriy etish davr taqozosiga aylandi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi bo'limida ta'kidlangan, maktablarda ta'lim sifatini oshirish,

pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Maktablarni rivojlantirish Milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish. 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [1].

Hozirgi davrda insonlar o‘rtasidagi samarali muloqot qilish qobiliyati, ya’ni kommunikativ kompetensiya, nafaqat ijtimoiy hayotda, balki ta’lim, ishbilarmonlik, sog‘liqni saqlash va boshqa ko‘plab sohalarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insonlar orasida yuzaga keladigan tushunmovchiliklar, ziddiyatlar va ijtimoiy muammolarning asosida ko‘pincha noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan muloqot yotadi. Shu sababli kommunikatsiya jarayonini chuqur o‘rganish hozirgi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

“...Ko‘zlagan maqsadlarimiz qanchalik yuksak va mashaqqatli bo‘lmasin, ularga yetish uchun barcha imkoniyatlarimiz mavjud. Ajdodlarimiz merosi, Albatta, bugun o‘z tengdoshlariga ibrat bo‘layotgan, jamiyatdagi o‘zgarishlarda faol ishtirok etib kelayotgan g‘ayratli yoshlar juda ko‘p. Lekin, hayotda o‘z o‘rnini topishga qiynalayotgan, yo‘ldan adashgan, ko‘makka muhtoj yoshlar ham, afsuski, yo‘q emas. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Yoshlar ishlari agentligi bilan birga, yoshlar, ayniqsa, ularning uyushmagan qatlami bilan mas’ullar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot o‘rnatishga xizmat qiluvchi “Yoshlar murojaati” elektron platformasini yaratishi kerak bo‘ladi.” [2]

Shaxslararo muloqotda individual - psixologik farqlar muhim o‘rin tutadi. Har bir insonning shaxsiy fazilatlarini, xarakteri, temperament turi, hayotiy tajribasi va emotsional holati uning boshqalar bilan muloqotiga bevosita ta’sir qiladi.

Shaxslararo muloqotda individual farqlarning namoyon bo‘lishi:

1. Temperament turlari (psixofiziologik farqlar):

– Sangvinik insonlar ochiq, faol va muloqotga kirishuvchan bolishadi.

– Melanxolik shaxslar esa hissiyotga moyil, ehtiyotkor va kamgap bo‘lishi mumkin.

Bu temperament turlari shaxslararo muloqot uslublarida farq paydo qiladi.

2. Xarakter xususiyatlari:

Sabrlilik, empatiya, ochiqlik, ishonuvchanlik yoki agressivlik – bularning barchasi muloqotga ta’sir etadi. Masalan, dominant shaxslar ko‘proq rahbarlik qilishga intiladi, boshqalar esa yo‘naltirishga muhtoj bo‘lishi mumkin.

3. Ijtimoiy tajriba va ma’lumot darajasi:

Odamning ma’lumot darajasi, kasb yo‘nalishi, oilaviy tarbiyasi va madaniy muhit muloqot uslubiga ta’sir qiladi. Turli ijtimoiy tajribaga ega shaxslar bir masalaga turlicha yondashishi mumkin.

4. Emotsional intellekt:

Boshqalar his-tuyg‘ularini anglab, ularga mos ravishda muloqot olib boradigan shaxslar muloqotda muvaffaqiyatga erishadi. Bu esa empatiya va o‘zini boshqara olish bilan bog‘liq.

Ilmiy taxlil: Psixologlar (xususan, L.S. Vygotskiy va K. Rogers) ta’kidlaganidek, muloqot bu nafaqat axborot almashinuvi, balki shaxsiylikning ifodalanishidir. Har bir shaxs muloqotda o‘z dunyoqarashi, ehtiyojlari va o‘zini anglash darajasini namoyon qiladi. Bu jihatlar turli shaxslar o‘rtasida tushunmovchiliklar yoki muvaffaqiyatli muloqotlarga sabab bo‘ladi.

Shaxslararo muloqotda yuzaga keladigan muammolar:

1. Psixologik to‘siqlar – odamning ichki holati (qo‘rquv, ishonchsizlik, tajovuzkorlik) muloqot samaradorligini pasaytiradi.
2. Emotsional muvofiqlik yetishmasligi – suhbatdoshlarning bir-birini to‘g‘ri tushunmasligi.
3. Tashqi sharoitlar – shovqin, vaqt tanqisligi, nomaqbul muhit muloqotga salbiy ta’sir qiladi.
4. Ijtimoiy stereotiplar va shaxslararo qarama-qarshiliklar – odamlar orasidagi avvalgi munosabatlar yoki fikrlar asosida muloqotda to‘siq yuzaga keladi.

Psixolog L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, shaxs taraqqiyoti ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. Uning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, insonning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy muloqot va madaniy vositalar orqali shakllanadi. Bu nazariya, ayniqsa, bolalarning o‘yin faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki o‘yin orqali ular ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradilar va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shaxslararo muloqotda ishtirok etayotgan subyektlarning individual farqlari muloqot mazmuni va shakliga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lgan shaxslar ko‘proq samarali muloqot quradilar, nizolardan qochadilar va ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘ladilar.

Psixologik tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, shaxsning individual jihatlari muloqotdagi motivlar, axborotni qabul qilish va uni talqin qilish darajalariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, o‘qituvchi-talaba, rahbar-xodim kabi ijtimoiy rollar kesimida yaqqol namoyon bo‘ladi. Kasbiy - pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishida o‘qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o‘rin egallaydi. Bola o‘qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Bo‘lmasa ko‘ngildagidek muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo‘ladilar. O‘qituvchi bola katta bo‘layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyatini shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Pedagog kommunikativ madaniyatga erishish uchun quyidagilarga ahamiyat

berishi lozim:

- bolani sabr - toqat bilan tinglash madaniyati;
- unga qiziqarli bo‘lmasa ham bolani diqqat bilan tinglash;
- bola zerikayotganligini sezib, mavzuni boshqa qiziqarli tomonga burib yuborish;
- suhbatlashishdan avval bolaning kayfiyatini ko‘tarishga harakat qilish;
- bozor iqtisodiyotiga mos keladigan muloqot madaniyatini o‘zlashtirishni ta’minlash kabi maqsadlar qo‘yiladi. [3]

Yuqoridagi xulosalarga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ta’lim jarayonida psixologik o‘ziga xosliklarni hisobga olish: O‘qituvchilar va pedagoglar talabalar bilan muloqotda individual - psixologik xususiyatlarni hisobga olib, ularning o‘ziga xos kommunikatsiya uslublariga moslashgan yondashuvlarni qo‘llashlari maqsadga muvofiq.

2. Psixologik tayyorgarlik va treninglar o‘tkazish: Universitetlarda talabalar va xodimlar uchun kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish, stress va konfliktlarni boshqarish bo‘yicha treninglar tashkil etilishi tavsiya etiladi.

3. Individual yondashuvni rivojlantirish: Har bir insonning shaxsiy va psixologik xususiyatlariga e’tibor qaratish orqali samarali kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash zarur.

4. Qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish: Kelgusida turli yosh, kasb va ijtimoiy guruhlar orasida individual - psixologik xususiyatlarning kommunikatsiyaga ta’sirini chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy tadqiqotlar davom ettirilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi “Taraqqiyot strategiyasi” markazi. @dsc.uzbekistan www.strategy.uz @dsc_uzb @dscuzbekistan @dscuzbekistan Development Strategy Center.
2. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ёшлари форумида сўзлаган нутқи. Электрон ресурс: <https://president.uz/ru/lists/view/02.04.2025>
3. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Monografiya. 2024.”SUNRUSE-PRO” nashriyoti.